Zamonaviy ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan inklyuziv yondashuv.....	662
Djurayeva Hurshida	
Libos va aksessuarlar orqali milliy estetik didni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	666
Doniyorova Shahnoza Erkin qizi	

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari mazmuni	672
Dosbayeva Shahnoza Abdurahimovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tili o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari.....	675
Ergasheva Xilola Yunusxonovna	
Use of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language for Uzbekistan General Schools.....	679
Feruza Zokirova Adham qizi	
Efferent motor afaziya va uni bartaraf etish yo'llari.....	682
G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi	
O'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish: biologiya darslarida global ekologik muammolar tahlili.....	686
Ibragimova Sitara Akmal qizi	
Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish	690
Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
Tojibayeva Nazokatxon	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
Xamidova Nigora Ibrohimovna	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
Абдулахадова Шохид	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
Мухаммадиева Марифат Мурод кизи	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
Ikramova Aziza Aminovna	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
Qarshiboyev Asliddin	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
Xolmatov Pardaboy Qoraboevich	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
Азмиева Э. Э.	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
Xoldarova F. M.	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
Gulyamova Nafisa Burikulovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
Boyqulov Azamat Maxram o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
Sobirov Sarvar Tursunmurotovich	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MOSLASHUVCHAN KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Nuriddinova Diyora Isaqali qizi

University of Business and Science

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim hamda

Jismoniy tarbiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar, mehrga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, ishbilarmonlikni rivojlantirish, kattalar bilan muloqotga kirishish jarayonlarining turlari va ularning xususiyatlari ilmiy asosda yoritib berilgan. Tadqiqotda shaxsiy rivojlanishda muhim bo'lgan e'tibor, madaniyat, hamkorlik va axloqiy qadriyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, muloqot, madaniyat, munosabat, ehtiyoj, shaxs, e'tibor, qoida, axloq, mehr, hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the types and characteristics of communication processes of primary school students with adults, the competences necessary for their development, and the activities aimed at fostering kindness, entrepreneurship, and cooperation. Special emphasis is placed on the role of culture, rules, ethics, and attention in shaping the child's personality and social interaction within the educational environment.

Key words: competence, communication, culture, attitude, need, personality, attention, rule, ethics, kindness, cooperation.

Аннотация: В статье рассматриваются виды и особенности процессов общения младших школьников со взрослыми, типы компетенций, необходимых учащимся начальной школы, а также виды деятельности, направленные на развитие доброты, предприимчивости и сотрудничества. Особое внимание уделяется значению культуры, правил и этических норм в формировании личности ребёнка и его социального взаимодействия.

Ключевые слова: компетенция, общение, культура, отношение, потребность, личность, внимание, правило, этика, доброта, сотрудничество.

KIRISH

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev: "Biz yoshlarga bo'lgan davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni butun dunyo talab qilgan yuksak darajaga ko'taramiz". Davlatimiz rahbari yoshlarga shunchalik imkoniyatlarni yaratib beryaptiki, yoshlar bunga qanchalik darajada javob qaytaryapti? Bugungi kundagi yoshlarimiz ongini nimalar band qilib olyapti, degan savollar menimcha barchaga qiziq bo'lsa kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida ko'radigan bo'lsak, ular o'zlarini jamiyatimizga foydali shaxs sifatida yetishib chiqishida ustozlarimizning o'rni va salohiyati kerak, deb o'ylaymiz. Buning uchun biz kompetensiya o'zi nima ekanligini yaxshi bilib olishimiz kerakligi haqida fikr yuritamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiyada muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida ham o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli¹ qarorida ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va uni metodik asoslarda qo'llash

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qaror: <https://lex.uz/docs/-3153714>



muhimligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu hujjat boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikma va ijtimoiy faoliyatini shakllantirishni talab qiladi.

L.S. Vigotskiy va V.V. Davydov tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarda shaxs rivojida muloqot va ijtimoiy muhitning o'рни alohida ta'kidlanadi. Olimlar bolalarda kompetensiyalar asta-sekin shakllanishini, bunda tengdoshlar va kattalar bilan muloqot jarayoni hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Olimov, Karlin va Ivanovlarning pedagogik tadqiqotlarida esa o'quvchilarda ijtimoiy moslashuvchanlik va madaniy munosabatlarni shakllantirishda dars jarayonidan tashqari faoliyatning o'рни keng yoritiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan, Laziza Dilmurod qizi va E.G. G'oziyev o'z asarlarida tarbiya, pedagogika va psixologiyaning uyg'unlashuvi orqali bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, shuningdek, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Voxidov va Muhammadiyeva asarlarida esa oilaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'рни, muloqot psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlari asosida kompetensiya shakllanishi haqida qimmatli ilmiy xulosalar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi o'quvchilarda moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini o'rganishda kuzatish, suhbat va anketa usullaridan foydalanishga asoslandi. Kuzatish orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati va muloqotga kirishish qobiliyati qayd etildi, suhbat yordamida esa o'qituvchilarning tajribasi hamda qarashlari o'rganildi. Anketalar orqali o'quvchilar va ota-onalarning fikrlari to'plandi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi, sifat va miqdoriy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, o'quvchilarda kompetensiya shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiya – bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarining uyg'un majmuasidir. Oddiy qilib aytganda, kompetensiya – bu faqat nazariy bilim emas, balki uni amaliyotda to'g'ri qo'llay olish qobiliyati.

Kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari:

- **Bilim** – mavzu yoki soha bo'yicha nazariy ma'lumotlar.
- **Ko'nikma** – o'rganilgan bilimni amaliy ishda qo'llay olish.
- **Tajriba** – o'z faoliyati davomida orttirilgan amaliy natijalar.
- **Qadriyat va munosabatlar** – shaxsning o'z ishiga mas'uliyatli, ijobiy yondashuvi.
- **Motivatsiya** – o'rganish va rivojlanishga ichki ehtiyoj.

Turlari:

- **Kasbiy kompetensiya** – o'z mutaxassisligi bo'yicha ishni bajarish qobiliyati.
- **Kommunikativ kompetensiya** – odamlar bilan to'g'ri muloqot qilish, fikrni aniq ifodalash.
- **Axborot-kommunikatsion kompetensiya** – texnologiyalar va axborot bilan ishlay olish.
- **Ijtimoiy kompetensiya** – jamoada ishlash, hamkorlikni yo'lga qo'yish.
- **Shaxsiy kompetensiya** – o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri taqsimlash.

Misol:

Bir o'qituvchining kompetensiyasi – nafaqat fanini bilishi, balki darsni qiziqarli o'tkaza olishi, o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish, zamonaviy metodlardan foydalana olishi bilan belgilanadi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Bolalarni tarbiyalashda mehribonchilik qilish, qilgan ishlarini maqtash, doim shirinso'zlik bilan muloqotda bo'lish talab qilinadi. Uni taqdirlab borish juda katta o'rin egallaydi. Lekin bu xil ishlar – maqtash va mukofotlash haddidan oshib ketsa, faqat ziyon bo'ladi. Bolalarga mehri ham, jazo berishni ham me'yordan oshirmaslik uning yaxshi odobli bo'lishi uchun xizmat qiladi.



Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi – o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagi munosabat turlariga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1. hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;
2. muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
3. insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish;
4. shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

A.V. Zaporjes va M.I. Lisina izlanishlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi va takomillashadi:

1. e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
2. kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
3. avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug'iladi;
4. maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirayotgan davrda ba'zi bir qoida-larga rioya qilsa, hamkorlik jarayonida ma'lum yutuqlarga erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelajagimiz davomchilarini nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolari-dandir. Maktabning o'rta va yuqori sinflarida yozma nutq mazmunli, ta'sirli bo'lib, grammatik jihatdan tobora to'g'ri, mukammal tuzilib boradi va natijada bunday nutq og'zaki nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsata bosh-laydi. Bolalarning nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi o'quvchilar nutqini o'stirishda na'muna bo'lib xizmat qilishi kerak.

Avvalo, o'qituvchi na'muna sifatida o'quvchilarga o'rnak bo'lishi, gapirayotgan gaplarida mazmun, sifat va albatta, ravon nutqga ega bo'lishi talab etiladi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri – muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj qondirilmasa, ong ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doim muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim.

Muloqot turli yoshlarda o'ziga xos bo'ladi. Masalan, kattalar ma'lumotlariga, yoshlariga, jinslariga, kasblariga, ba'zilar esa tashqi ko'rinishiga qarab muloqotda bo'ladilar. Keksalar muloqoti o'ziga xosdir. Ular xuddi kichik bolalardek izzattalab, injiq, e'tibortalab bo'lib qoladilar. Keksalarga ehtiyotkor bo'lib muomalada bo'lish zarur, chunki ularning ko'ngillari nozik bo'ladi. Ularga ko'ngillarini ko'taradigan so'zlarni ko'proq qo'llash zarur. Demak, har bir yosh guruhiga kiradigan kishilar, shu jumladan, kattalar ham o'ziga xos muloqotga kiri-shadilar. Muloqot har bir davrga xos holda amalga oshiriladi.

V.N. Myasishev muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: "Shaxs turlicha munosabat-larda qarama-qarshi sifatlarini namoyon qilishi mumkin". B.G. Ananev fikricha, muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Inson o'z hayotida turli ijtimoiy guruhlarning a'zosidir. Guruh turi ma'lum ijtimoiy munosabatlarning mavjud-ligini taqozo qiladi.

Masalan:

1. Ishlab chiqarish munosabatlari – ishlab chiqarish, ta'lim, iqtisodiy, maishiy va boshqa muammolarni hal qilishda tashkilotlar xodimlari o'rtasida shakllanadi va xodimlarning bir-biriga nisbatan xatti-harakatlarining qat'iy qoidalarini nazarda tutadi. Ushbu munosabatlar quyidagilarga bo'linadi: vertikal – menejerlar va bo'ysunuvchilar o'rtasida; gorizontal – bir xil maqomga ega bo'lgan xodimlar o'rtasidagi munosabatlar; diagonal – bir ishlab chiqarish bo'linmasi rahbarlarining boshqasining oddiy xodimlari bilan munosabatlari.
2. Maishiy munosabatlar – ta'tilda va uyda mehnat faoliyatidan tashqari shakllanadi.



3. Iqtisodiy munosabatlar – moddiy va ma'naviy mahsulotlar bozori bo'lgan ishlab chiqarish, egalik qilish va iste'mol qilish sohasida amalga oshiriladi. Bu yerda odam ikkita o'zaro bog'liq rolda harakat qiladi – sotuvchi va xaridor.
4. Huquqiy munosabatlar – qonun bilan belgilanadi. Ular ishlab chiqarish, iqtisodiy, siyosiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti sifatida shaxs erkinligi o'lchovini belgilaydi. Qonunchilik qoidalariga asoslangan bu munosabatlar katta ma'naviy yuk yuklaydi.
5. Axloqiy munosabatlar – tegishli marosimlar, urf-odatlar va odamlar hayotini tashkil etishning boshqa shakllarida mustahkamlangan. Bu shakllar mavjud shaxslararo munosabatlar darajasidagi xulq-atvorning axloqiy me'yorini o'z ichiga oladi, bu odamlarning ma'lum bir jamoasining axloqiy o'zini o'zi anglashidan kelib chiqadi.
6. Diniy munosabatlar – ma'lum bir jamiyat yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan e'tiqod va din ta'siri ostida shakllangan kishilarning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Bu munosabatlar insonning o'zini o'zi bilish va takomillashtirish ehtiyojidan, borliqning oliy ma'nosini anglashdan, kosmos bilan aloqalarini tushunishdan kelib chiqadi. Bu munosabatlarda hissiyotlar, sezgi va e'tiqodga asoslangan voqelikni aqliy aks ettirishning irratsional tamoyillari ustunlik qiladi.
7. Siyosiy munosabatlar – hokimiyat muammosi atrofida shakllanadi. Ikkinchisi avtomatik ravishda unga ega bo'lganlarning hukmronligiga va unga etishmayotganlarning bo'ysunishiga olib keladi. Jamoatchilik munosabatlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan hokimiyat odamlar jamoalarida etakchilik funktsiyalari shaklida amalga oshiriladi. Uning absolutizatsiyasi, shuningdek, uning to'liq yo'qligi jamiyatlarning hayotiy ta'minoti uchun zararli.
8. Estetik munosabatlar – odamlarning bir-biriga nisbatan hissiy va psixologik jozibadorligi va tashqi dunyoning moddiy ob'ektlarining estetik aks etishi asosida yuzaga keladi. Bu munosabatlar juda subyektivdir.

Shuningdek, munosabatlar ikkiga ajratiladi: rasmiy va norasmiy munosabatlar.

1. Rasmiy munosabatlar – rasmiy hujjatlarda mustahkamlangan normativ-huquqiy munosabatlar.
2. Norasmiy munosabatlar – odamlar o'rtasidagi munosabatlarda haqiqatan ham rivojlanadigan va afzal ko'rish, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, o'zaro baholash, hokimiyat va boshqalarda namoyon bo'ladigan munosabatlar.

Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi – bu elementar psixologik bilimlar asosida insonni o'rganishga, uni ochib berishga qaratilgan butun bir fan. Bundan tashqari, ushbu texnika yordamida o'zingiz bilan aloqa o'rnatishingiz mumkin. Axir, o'z-o'zidan biror narsani yoqtirmaydigan ideal “men” va “men” mavjud. O'zingiz uchun bunday jadvalni tuzib, siz o'zingiz bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo'lishingizni tushunishingiz mumkin. Axir, agar siz o'zingizning shaxsingiz bilan tushunishga erisha olmasangiz, atrofingizdagi odamlar bilan buni qilish shunchaki imkonsiz bo'ladi.

Har bir insonning hayoti ko'p qirrali, shuning uchun jamiyatdagi munosabatlar har xil. Vaziyatga va boshqa ko'plab omillarga qarab, shaxslararo munosabatlar bir necha mezonlarga ko'ra tasniflanadi va shaxslararo munosabatlarning quyidagi turlariga bo'linadi:

- rasmiy va norasmiy; shaxsiy va biznes (professional);
- hissiy va oqilona (amaliy);
- paritet va subordinatsiya.

Har bir munosabat turini batafsil ko'rib chiqishdan oldin, biz turli sohalarda munosabatlarni o'rnatishda psixologiyaga erishishning zamonaviy usullarini tavsiya qilmoqchimiz. Ushbu psixologik usullarni o'zlashtirganingizdan so'ng, siz odamlar bilan osongina muloqot qila olasiz va munosabatlarni o'rnatasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori.
2. L.Y. Olimov, L.S. Vigotskiy, Nata Karlin, P.I. Ivanov. Bolalarning tengdoshlari bilan munosabati, Pedagogik mahorat.
3. Laziza Dilmurod qizi. Tarbiya sirlari. Nasaf nashriyoti, 2010.
4. Tashxis N-46 (424). 2015-yil 17–23-noyabr soni.
5. Ma'rifat gazetasi. 2012-yil 18-fevral, 14-son.
6. Выготский Л.С. Проблемы общей психологии. Л.С. Выготский, В.В. Давыдов. – М.: Педагогика, 1982. – 360 с.
7. N.N. Obozov. Muloqot psixologiyasi.
8. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi.
9. Muhammadiyeva M. Oilam bilan har bir hayot darsini o'rganamiz.
10. G'oziyev E.G. Pedagogika va psixologiya asoslari.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.